Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 22-sentyabr, № 197 (9368) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TRANSPORT-LOGISTIKA SOHASIDA INVESTITSIYAVIY LOYIHALAR IJROSI

Prezident Shavkat Mirziyoyev transport-logistika sohasidagi yirik loyihalarning borishi yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal o‘sishi, sanoat ishlab chiqarishi va tashqi savdo hajmining kengayishi transport infratuzilmasini izchil rivojlantirishni taqozo etmoqda. O‘zbekistonni Tinch okeanidan Yevropagacha bo‘lgan eng qisqa quruqlik yo‘lagining asosiy bo‘g‘iniga aylantirish, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bu boradagi ustuvor vazifalardandir.

2030-yilga qadar transport xizmatlari hajmini ikki barobar oshirish, sohaga 9,1 milliard dollar investitsiya jalb qilish va xizmatlar eksportini 5,7 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Taqdimotda ushbu maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari, ularning muddatlari va hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqildi.

Avvalo, aeroportlar qurilishi va modernizatsiyasi bo‘yicha axborot berildi.

Toshkent va Buxoroda umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollar bo‘lgan yangi aeroport majmualarini barpo etish ishlari olib borilmoqda. Yangi Toshkent xalqaro aeroporti dastlabki bosqichda yiliga 20 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Loyiha doirasida davlat-xususiy sheriklik bitimlari imzolanib, hududni qurilishga tayyorlash va muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Yangi Buxoro xalqaro aeroportida aerodrom infratuzilmasi barpo etilmoqda. Yo‘lovchi terminalini qurish va boshqarishga xususiy sherikni jalb qilish bo‘yicha xalqaro tender o‘tkazilmoqda.

Shuningdek, Urganch, Namangan aeroportlarini davlat-xususiy sheriklik asosida, Andijon aeroportini xususiy operatorni jalb qilgan holda modernizatsiya qilish loyihalarining borishi ko‘rib chiqildi. Natijada aeroportlarning o‘tkazuvchanligi oshirilib, yo‘lovchilarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengayadi.

Avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

O‘tgan oyda qiymati 2,2 milliard dollar bo‘lgan Toshkent – Samarqand pullik avtomobil yo‘li qurilishiga start berildi. Urganch va Xiva shaharlarini bog‘lovchi ilk pullik yo‘l ishga tushirildi.

Taqdimotda Toshkent – Samarqand loyihasining keyingi bosqichlarini moliyalashtirish, Toshkent – Andijon va Toshkent – Bo‘stonliq pullik yo‘llari bo‘yicha investorlarni aniqlash hamda amaliy ishlarni boshlash bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi.

Temir yo‘l tarmog‘ining o‘tkazuvchanligini oshirish bo‘yicha takliflar taqdim etildi.

Bugungi kunda asosiy tranzit yo‘nalishlaridagi qator temir yo‘l uchastkalari yuqori yuklama bilan ishlamoqda. Sanoat yuklari hajmining ortishi va yangi yuqori tezlikdagi poyezdlar qatnovining yo‘lga qo‘yilishi mavjud infratuzilmaga talabni yanada oshiradi.

(Davomi 2-betda).

«YASHIL MAKON»: KO‘KALAMZORLASHTIRISH ISHLARIGA IZCHIL YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasini yangi bosqichga olib chiqish, mahallalarda aholi uchun qulay ekologik muhit yaratish va innovatsion yechimlarni joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda yashil hududlarni kengaytirish, daraxtzor va bog‘lar barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga ekilgan ko‘chatlarni saqlab qolish, ularni sug‘orish va parvarishlashni tizimli tashkil etish borasida kamchiliklar mavjud.

O‘tgan yil bahorda ekilgan ko‘chatlarning ma’lum qismi qurib qolgan. Hudud iqlimi va tuprog‘iga mos kelmaydigan daraxtlarni tanlash, suv ta’minoti bo‘lmagan joylarga ko‘chat ekish, kasallik va zararkunandalarga qarshi choralarning yetarli emasligi bunga sabab bo‘lmoqda. Orol dengizining qurigan tubida barpo etilgan o‘rmonlarni parvarishlash va himoya qilishda ham muammolar borligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari ishlar samaradorligini ekilgan ko‘chatlarning bir, uch va besh yildan keyingi holati asosida baholash zarurligini ta’kidladi.

Shu munosabat bilan ko‘kalamzorlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, yerni tayyorlashdan boshlab sug‘orish tizimini yaratish va ko‘chatlarni kamida uch yil parvarishlashgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oluvchi yondashuvlar taqdimot qilindi. Ekish muddatlarini har bir hududning ob-havo sharoiti va olimlar xulosasi asosida belgilash, mahalliy iqlimga mos, issiqlik, sovuqqa va suv tanqisligiga chidamli turlarga ustuvorlik berish ko‘zda tutilmoqda.

Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga har bir mahalla kesimida ko‘chat turi, ekiladigan joyi va sug‘orish tizimi aks etgan “yashil xarita”larni ishlab chiqib, aholiga e’lon qilish topshirildi. Mahalla raislari bilan birgalikda har bir ko‘chadagi daraxt va ko‘chatlar holatini muntazam kuzatish, qurish sabablarini aniqlab, bartaraf etish vazifasi qo‘yildi.

Daraxt ekish ishlarini, avvalo, aholi gavjum joylarda, piyodalar yo‘laklari va tunu kun ishlaydigan ko‘chalarda tashkil etish muhimligi ta’kidlandi. Bunday hududlarda soya beruvchi daraxtlarni ko‘paytirish orqali odamlarning yurishi va dam olishi uchun qulay sharoit yaratish zarurligi qayd etildi.

Taqdimotda “Yashil” mahallam” dasturi doirasida mahallalarga kompleks xizmatlar ko‘rsatish takliflari ko‘rib chiqildi. Mahalla buyurtmasi asosida sifatli ko‘chatlar, organik o‘g‘it va suv tejovchi sug‘orish vositalarini yetkazib berish, daraxtlarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilmoqda.

Har bir mahallaga o‘rmonchi-murabbiy biriktirib, aholiga ko‘chat ekish, sug‘orish va parvarishlashni o‘rgatish, uylar, maktab va bog‘chalar oralig‘ida kichik daraxtzorlar hamda jamoat bog‘larini barpo etish rejalashtirilgan. Bu ishlarga mahalla faollari va yoshlardan iborat ko‘ngillilar harakatlarini keng jalb qilish vazifasi belgilandi.

(Davomi 2-betda).

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA PREZIDENTINI DAVLAT DUMASIGA SAYLOV MUVAFFAQIYATLI O‘TKAZILGANI BILAN TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-sentabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Rossiya yetakchisini Davlat dumasiga saylov muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabriklab, parlamentning yangi tarkibiga samarali faoliyat tiladi.

Suhbatda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston – Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Hukumatlararo komissiya va Hududlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlari hamda Rossiyada O‘zbekiston madaniyati kunlarini natijador qilib o‘tkazish muhimligi qayd etildi.

Tomonlar bo‘lajak ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

O‘zA.

O‘rganish

MUROJAATLAR ATROFLICHA KO‘RIB CHIQILDI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov boshchiligidagi ishchi guruhning Namangan viloyatiga xizmat safari doirasida Norin tumanida ta’lim infratuzilmasi, ijtimoiy sohadagi obyektlarda amalga oshirilayotgan ishlar hamda aholi murojaatlari o‘rganildi.

Dastlab tumandagi 13-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti va 16-umumta’lim maktabida davlat dasturlari asosida olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlarining holati, obyektlarning tayyorlik darajasi, moddiy-texnika bazasi, hudud infratuzilmasi hamda bolalar uchun zamonaviy va xavfsiz sharoitlar yaratish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘rganishlar davomida ta’lim muassasalarining faoliyati uchun zarur sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirish va mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Mas’ullar bilan muloqotlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash, mavjud muammolarni tizimli hal etish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

2

Tashrifdan so‘ng...

OROLBO‘YI IQTISODIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

Bugun Qoraqalpog‘istonda kechayotgan yangilanishlar hududning iqtisodiy salohiyati va mavjud imkoniyatlariga yangicha yondashuv shakllanganini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy sanoat korxonalari, muqobil energiya manbalari, raqamli texnologiyalar va transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ish o‘rinlari yaratib, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi hududni sanoat, energetika va zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish borasidagi jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Tashrif doirasida ishga tushirilgan korxonalar, qurilishi boshlangan yirik loyihalar hamda Nukus shahrida o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilangan vazifalar Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy qiyofasi tubdan o‘zgarayotganini ko‘rsatdi.

3

IMKONIYATLARDAN NATIJALAR SARI

So‘nggi o‘n yil mamlakatimiz hayotida keng ko‘lamli islohotlar, yangilanish va bunyodkorliklar davri bo‘ldi. Bu jarayonda Qoraqalpog‘iston Respublikasiga alohida e’tibor qaratilib, hududning o‘ziga xos sharoiti, tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini ko‘tarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugun ana shu ishlar samarasini raqamlarda ham, hudud qiyofasi va odamlar hayotidagi o‘zgarishlarda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

So‘nggi o‘n yilda Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonni rivojlantirishga qaratilgan saksondan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Ularning amaliy natijasi sifatida sanoat korxonalari, zamonaviy infratuzilma obyektlari barpo etildi, ta’lim va tibbiyot sohalarida yangi imkoniyatlar yaratildi. Eng muhimi, bu ishlar hududning kelgusi taraqqiyoti uchun mustahkam iqtisodiy va ijtimoiy poydevor bo‘ldi.

Endilikda esa oldimizda turgan vazifa yanada aniq va mas’uliyatli. Ya’ni yaratilgan imkoniyatlarni har bir insonning daromadi va farovonligiga aylantirish zarur. Prezidentimizning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga ikki kunlik tashrifi ham ana shu jihatdan alohida ahamiyat kasb etdi.

3

Qoraqalpog‘iston Respublikasi:

KELAJAK AVLODLAR OLDIDAGI MAS’ULIYAT

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga navbatdagi tashrifi hududda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarni sarhisob qilish, mavjud imkoniyatlarni yana bir bor chuqur tahlil etish va taraqqiyotning navbatdagi bosqichi uchun aniq vazifalar belgilab berilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Davlatimiz rahbari ishtirokida Nukus shahrida o‘tkazilgan yig‘ilishda sanoat va investitsiya masalalaridan tortib qishloq xo‘jaligi, suv ta’minoti, tibbiyot, ta’lim, mahalla va ekologiyagacha bo‘lgan barcha yo‘nalishlar qamrab olindi.







Orolbo‘yi deganda bir paytlar ko‘z oldimizda, avvalo, murakkab ekologik vaziyat, suv tanqisligi, og‘ir tabiiy sharoitlar gavdalanar edi. Bugun esa buning tamoman aksi: yangi sanoat korxonalari, shamol elektr stansiyalari, zamonaviy shifoxonalar, ko‘p qavatli uylar, yangilangan ko‘chalar, yo‘l va kommunikatsiyalar, yangi ish o‘rinlari, yashil hududlar Qoraqalpog‘iston manzarasining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Prezidentimiz 18-19-sentabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida ana shu o‘zgarishlar salohiyati bilan tanishdi. Eng muhimi, erishilgan natijalarning o‘zi bilan cheklanmay, hududni rivojlantirishning yangi, yanada yuqori bosqichi uchun vazifalar belgilandi.

Yig‘ilishda keltirilgan raqamlarning o‘zi keyingi yillarda hudud iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar ko‘lamini tasavvur etish imkonini beradi. Qoraqalpog‘istonda foyda, yer va mol-mulk soliqlari ikki karra pasaytirilgan, sanoat korxonalari uchun elektr energiyasi tarifi 15 foizga kamaytirilgan, ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilangan. 2025-yilda hududga 1,7 mlrd. dollar investitsiya kiritilgan bo‘lib, bu 2021-yildagiga nisbatan 22 barobar ko‘p. 2026-yilning birinchi yarmida esa Qoraqalpog‘iston iqtisodiyoti 10,2 foiz o‘sgani yanada e’tiborga molik.

Yana bir muhim ko‘rsatkich: 2016-yilda Qoraqalpog‘iston yalpi hududiy mahsuloti 8,5 trln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil boshiga kelib 54 trln. so‘mdan oshgan. Faol tadbirkorlik subyektlari soni 2,5 barobar ko‘payib, 26,5 mingtaga yetgan. Mahsulot ishlab chiqarishda xususiy sektor ulushi 66 foizni tashkil etmoqda.

3

Fakt va raqamlar

QORAQALPOG‘ISTONNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR

Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha kelgusida qator yirik loyiha va tashabbuslar amalga oshiriladi.

Jumladan,

Qo‘ng‘irotda **2 milliard 600 million** dollarlik, quvvati **1,5 ming** megavattli shamol elektr stansiyasi barpo etiladi.

Kelasi yil mart oyidan **Toshkent – Nukus tezyurar poyezdi** qatnovi yo‘lga qo‘yilib, safar vaqti **16 soatdan 7 soat**ga qisqaradi.

“Tuyamo‘yin” suv tozalash inshootini rekonstruksiya qilish va Qo‘ng‘irotdan Mo‘ynoqqa **100 kilometrlik** ichimlik suvi tarmog‘i tortish ishlari boshlanadi.

“Resursdan tayyor mahsulotgacha” tamoyili asosida yangi **sanoat va investitsiya xaritasi** yaratiladi.

Sun’iy intellekt va data-markazlari uchun tashkil etilgan maxsus zonada **8 milliard** dollarlik **6 ta** loyiha amalga oshiriladi.

Yil yakunigacha Orolning **50 ming** gektarida “O‘rmon karbon krediti” dasturi boshlanadi.

Nukusning “Ashshiko‘l” hududida **50 ming** aholiga mo‘ljallangan “Nukus siti” qurilishi boshlandi.

TRANSPORT-LOGISTIKA SOHASIDA INVESTITSIYAVIY LOYIHALAR IJROSI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shu bois Maktaaral – Sirdaryo, Angren – Pop, Toshg‘uzor – Boysun – Qumqo‘rg‘on, Toshkent – Samarqand va To‘qimachi – Angren yo‘nalishlarini modernizatsiya qilish choralari ko‘rib chiqildi. Ushbu ishlarga 200 million dollar yo‘naltirish hisobiga uchastkalarning o‘tkazuvchanligini 25 – 30 foizga oshirish mumkinligi qayd etildi.

Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi, Toshkent – Samarqand yo‘nalishida alohida yuqori tezlikdagi temir yo‘l barpo etish, hududlardagi temir yo‘l tarmoqlarini kengaytirish va elektrlashtirish loyihalari yuzasidan axborot berildi. Yuk vagonlari parkini yangilash, mazkur jarayonga xususiy sektorni keng jalb qilish takliflari ham muhokama qilindi.

Xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish va dengiz portlari orqali jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari alohida ko‘rib chiqildi.

Kaspiy dengizidagi Oqtau, Turkmanboshi va Boku, Qora dengizdagi Poti va Anakliya portlarida O‘zbekiston ishtirokida logistika infratuzilmasini yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar taqdimot qilindi. Xususan, Poti portida logistika markazini tashkil etish bo‘yicha bitim imzolangan, loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilmoqda. Anakliya portini rivojlantirishda, shuningdek, Turkiyaning Samsun va Istanbul portlariga chiqishga xizmat qiluvchi Naxichevan temir yo‘li qurilishida ishtirok etish imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

Mazkur loyihalar to‘qimachilik, kimyo, qishloq xo‘jaligi va kon-metallurgiya mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berish yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro yo‘laklardan samarali foydalanish uchun yurtimizdagi logistika markazlari tarmog‘ini ham kengaytirish zarurligi bildirildi.

Xonobod va Angren shaharlari, Yangiyo‘l, Ohangaron, Olot va Termiz tumanlarini transport-logistikaga ixtisoslashtirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan axborot berildi. Toshkent shahri, Toshkent, Andijon, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida jami 17 ta logistika markazi va terminal loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Ularni joylashtirish, investorlarni jalb qilish, moliyalashtirish va zarur infratuzilma bilan ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Taqdimotda yuk tashuvlarini raqamlashtirish va sohada yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga alohida e’tibor qaratildi.

Yuk tashish sohasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi hali ham 42 foizdan yuqori ekani ko‘rsatib o‘tildi. Mahalliy yuk transportlarining yagona reyestri, elektron buyurtmalarni shakllantirish va barcha transport xizmatlarini birlashtiruvchi elektron tizim mavjud emasligi bu boradagi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Shu bois yagona raqamli transport tizimini yaratish, tashuvchilar reyestrini shakllantirish, elektron yo‘l varaqasi va buyurtmalarni qabul qiluvchi agregator xizmatini joriy etish taklif qilindi. Xalqaro tashuvlarda elektron ruxsatnomalar almashinuvini kengaytirish va yuk harakatini real vaqtda kuzatish imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish choralari ham ko‘rib chiqildi.

Bu orqali tashuvchilar uchun qulaylik yaratish, norasmiy xizmatlarni qonuniy faoliyatga o‘tkazish va sohada shaffoflikni oshirish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan loyihalarning muddatlari, moliyalashtirish manbalari va kutilayotgan natijalarini aniq belgilab, ularni o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirish muhimligini ta’kidladi. Mutasaddilarga muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

«YASHIL MAKON»: KO‘KALAMZORLASHTIRISH ISHLARIGA IZCHIL YONDASHUV

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mahallalarning “yashil reytingi”ni joriy etish taklifi ham muhokama qilindi. Bunda yashil maydonlar ulushi, aholi soniga nisbatan daraxtlar soni, yangi ko‘chatlarning tutib ketishi va aholining ishtiroki asosiy mezonlar bo‘ladi. Yuqori natijaga erishgan mahallalarni obodonlashtirish uchun qo‘shimcha mablag‘lar va “yashil” loyihalarga maqsadli mikrograntlar ajratish orqali rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish topshirildi.

Hududlarni ko‘kalamzorlashtirishda “3 – 30 – 300” tamoyiliga asoslangan dasturlarni amalga oshirish taklif etildi. Bunda har bir inson yashash, ishlash yoki o‘qish joyidan kamida uchta daraxtni ko‘ra olishi, aholi yashash hududining kamida 30 foizi daraxtlar soyasi bilan qoplanishi, uyidan 300 metr masofada yashil dam olish hududi bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Ushbu yondashuvlarni turli tabiiy va shaharsozlik sharoitlarida qo‘llash bo‘yicha Toshkent shahrining Yangihayot, Buxoro viloyatining Olot va Samarqand viloyatining Urgut tumanlari uchun ishlab chiqilgan loyihalar taqdim etildi.

Yangihayotda mahalla va jamoat bog‘lari, soya-salqin sayr ko‘chalari hamda sanoat korxonalari atrofida “yashil belbog‘”lar barpo etish rejalashtirilgan. Sizot suvlarini to‘plab, sug‘orishda qayta ishlatish, suv o‘tkazuvchan qoplamalardan foydalanish, organik qoldiqlardan kompost tayyorlash kabi yechimlar nazarda tutilmoqda. Ko‘kalamzorlashtirish ishlari sanoat tashlamalarini kamaytirish, havo sifatini avtomatik nazorat qilish va chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish bilan birgalikda olib boriladi.

Olot tumanida cho‘l sharoitiga mos, suvni kam talab qiladigan o‘simliklar hisobiga “yashil qoplama”ni kengaytirishga e’tibor qaratiladi. Mahalliy ko‘chatchilikni rivojlantirish, dendrologiya bog‘i va sho‘rga chidamli o‘simliklar bog‘ini tashkil etish, yo‘l va kanallar bo‘yida himoya daraxtzorlarini barpo qilish taklif etilgan.

Urgutda tog‘ va tog‘oldi hududlariga mos ko‘kalamzorlashtirish, dendrologiya bog‘i va jamoat parklarini yaratish, sanoat zonasi hamda temir yo‘l atrofida “yashil belbog‘”lar tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. “Omonqo‘ton” milliy tabiat bog‘ida mahalliy daraxt va buta urug‘lari asosida tabiiy o‘simlik qoplamini tiklash choralari ham ko‘riladi.

Loyihaning ilmiy ta’minotini kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari ko‘rib chiqildi. Hududlarga mos sog‘lom ko‘chatlarni ko‘paytirish uchun “in-vitro” laboratoriyalari va zamonaviy ko‘chatxonalarni tashkil etish, suvni ko‘p talab qiladigan manzarali gazonlarni bosqichma-bosqich qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar bilan almashtirish takliflari bildirildi.

“Yashil AI” modulini tajriba tariqasida ishga tushirish rejalashtirilgan. Sun’iy intellekt yordamida tuproq, iqlim va suv ta’minoti tahlil qilinib, ko‘chat ekish uchun maqbul maydonlar va daraxt turlari bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi. Ko‘chatlarning qurishi, suv tanqisligi, kasallik va zararkunandalar xavfini erta aniqlash, mas’ullarni ogohlantirish hamda natijalarni yagona xaritada ochiq kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Cho‘llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va bu yo‘nalishda xalqaro grantlarni jalb qilish masalalari ham muhokama qilindi. Cho‘l hududlaridagi yer resurslari va dorivor o‘simliklar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xususiy sektor ishtirokida yaylovlarda qo‘shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni boshlash zarurligi ta’kidlandi. 2027-yil 1-iyulga qadar har bir hududda shunday namunaviy loyihani yo‘lga qo‘yish topshirildi.

Mutasaddilarga taqdim etilgan takliflarni bildirilgan fikrlar asosida takomillashtirish, mahallalarda daraxt ekish va parvarishlash madaniyatini yuksaltirish, yashil hududlarni saqlash bo‘yicha mas’uliyat va nazoratni kuchaytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

O‘zA.

JAMOATCHILIK KUZATUVI USTUVOR

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi Qutbiddin Burhonov Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat dumasining IX chaqiriq deputatlari saylovida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Parlamentlararo Assambleyasidan kuzatuvchilar missiyasi tarkibida Moskva shahri va Ryazan viloyatida o‘tkazilgan monitoring tadbirlarida ishtirok etdi.

Hamkorlik

Senator Ryazan shahrida qator saylov uchastkalarida bo‘lib, uchastka saylov komissiyalari raislari va a’zolari, jamoatchilik kuzatuvchilari hamda volontyorlar faoliyati bilan tanishdi. Saylovchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ovoz berish jarayonini kuzatish va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ko‘rilgan choralar ham o‘rganildi.

Bundan tashqari, Ryazan viloyati Jamoatchilik kuzatuv shtabi faoliyati bilan ham tanishildi. Xalqaro kuzatuvchilarga saylov uchastkalaridagi jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi videomonitoring tizimi haqida ma’lumot berildi.

Q. Burhonov saylov uchastkalarida ovoz berish belgilangan tartibda tashkil etilgani, jamoatchilik kuzatuvi yo‘lga qo‘yilgani va jamoat tartibini ta’minlashga e’tibor qaratilayotganini qayd etdi.

Shuningdek, u Ryazan viloyati gubernatori Pavel Malkov, viloyat saylov komissiyasi raisi, viloyat dumasi va shahar dumasi rahbariyati, Rossiya senatori hamda Belarus Respublikasidan kelgan xalqaro kuzatuvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Muloqotlar chog‘ida saylovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi, saylov komissiyalari faoliyati, ovoz berish jarayonining ochiqligi, jamoatchilik va xalqaro kuzatuvni tashkil etish, saylovchilarning huquqlarini ta’minlash hamda jamoat tartibini saqlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Senatorlar – hududlarda

AMALIY YECHIMLAR TAKLIF ETILDI

Hududlarda aholi murojaatlarini o‘rganish, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni aniqlash va ularning yechimini topish maqsadida senatorlar tomonidan sayyor qabullar muntazam ravishda o‘tkazilmoqda.

Jumladan, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi Anvar To‘ychiyev Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida sayyor qabul o‘tkazdi.

Unda aholi tomonidan kundalik hayot, ijtimoiy soha va mahalla infratuzilmasiga oid qator masalalar ko‘tarildi. Xususan, bolalar va yoshlar uchun sport to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ichki yo‘llarni ta’mirlash, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha o‘rinlar yaratish hamda ijtimoiy reyestrga kiritish bilan bog‘liq murojaatlar bildirildi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida duch kelinayotgan noqulayliklarni bartaraf etish va aholi uchun qulay yashash sharoitlarini ta’minlashga doir masalalar ham ko‘rib chiqildi.

Senator bularni bevosita joyida o‘rganish maqsadida qator hududlarda bo‘ldi. Xususan, ichki yo‘llar, ichimlik suvi tarmoqlari va mahalla infratuzilmasi bilan bog‘liq masalalarning amaldagi holati ko‘zdan kechirildi.

O‘rganishlar yakunida mas’ul tashkilotlar vakillariga fuqarolar murojaatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqish, ko‘tarilgan masalalar yuzasidan amaliy choralar belgilash hamda ularning ijrosini nazoratga olish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi.

MUROJAATLAR ATROFLICHA KO‘RIB CHIQILDI

1

Shuningdek, Norin tumanida aholi uchun sayyor qabul o‘tkazilib, fuqarolarning ichki yo‘llarni ta’mirlash, ichimlik suvi, elektr va gaz ta’minoti, obodonlashtirish, bandlik, ijtimoiy himoya va tibbiy xizmatlarga oid murojaatlari qabul qilindi.

Sayyor qabul davomida ko‘tarilgan har bir masalani tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ko‘rib chiqish, fuqarolarga qonunchilikda belgilangan tartibda amaliy yordam ko‘rsatish va murojaatlar ijrosini nazorat qilish yuzasidan mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berildi. Aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida hal etish, davlat dasturlari doirasida belgilangan vazifalarning natijadorligini ta’minlash hamda muammolarni bartaraf qilish bo‘yicha amaliy ishlar izchil davom ettirilishi belgilandi.

Parlament nazorati

AHOLI UCHUN QANDAY QO‘SHIMCHA QULAYLIKLAR YARATILMOQDA?

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi a’zosi Jamila Bobonazarova Jizzax viloyatining Zarbdor tumanidagi o‘rganishlari davomida mahalliy Kengash deputatlari bilan birgalikda “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” toifasiga kiritilgan Navoiy nomidagi mahalla ishlari bilan tanishdi.

Hududda olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari, ichki yo‘llar hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash borasidagi loyihalarning holati ko‘zdan kechirildi. Shuningdek, mahallada aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarga e’tibor qaratildi.

“Mahalla yettiligi” vakillari bilan muloqotda aholi bandligini ta’minlash, fuqarolar murojaatlarini o‘rganish, ijtimoiy masalalarni hal etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar holati ham o‘rganildi. Shuningdek, mahallada joylashgan stol tennisi majmuasi faoliyati ko‘zdan kechirildi. Bu yerda yoshlarni sportga jalb etish uchun yaratilgan sharoitlar, mavjud sport infratuzilmasidan foydalanish holati bilan tanishildi.

Senator mas’ullar bilan muloqotda amalga oshirilayotgan ishlarni belgilangan muddatlarda va sifatli bajarish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda hududni namunaviy mahallaga aylantirish bo‘yicha tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berdi.

“Xalq so‘zi”.

Fikr

MAHALLA OBODLIGI – JAMIYAT FAROVONLIGI

Mahalla – davlat va aholi o‘rtasidagi muhim ijtimoiy ko‘prik. Asrlar davomida xalqimizning o‘zini o‘zi boshqarish, aholi o‘rtasida hamjihatlik va ijtimoiy hamkorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutib kelayotgan ushbu institut bugun ham jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin mahallaning huquqiy maqomi mustahkamlanib, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ijtimoiy vazifalari tobora kengayib borayotir.



Mahalla institutiga bo‘lgan e’tiborning bugungi kunda yanada kuchayib borayotgani yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham yaqqol namoyon bo‘lyapti. Xususan, davlatimiz rahbari mustaqilligimizning 35-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida kelgusi o‘n yillikni mamlakatimiz uchun milliy taraqqiyotning yangi davri sifatida belgilab, buni xalqimizning bilimi, mehnati va birdamligi asosida barpo etish zarurligini ta’kidladi.

Mazkur yuksak maqsadlarni ro‘yobga chiqarish doirasida yaqin yillarda inson qadrini yuksaltirish, aholi turmush darajasi hamda hayot sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan 7 ta milliy dastur amalga oshiriladi. Ularda mahalla institutini yanada rivojlantirish, uning aholi bilan ishlashdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mahallani islohotlarning bevosita quyi bo‘g‘ini sifatida kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu ma’noda, mahallaning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish, uning davlat va jamiyat o‘rtasidagi xalqchil muloqot maydoni sifatidagi o‘rnini yanada mustahkamlash bugungi taraqqiyot jarayonlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.



Ta’kidlash joizki, bugun mahallalar aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ishlarning eng muhim bo‘g‘iniga aylantirildi. “Temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari” kabi yangi mexanizmlar ishga tushirilgani, mahallabay ishlash uslubi takomillashtirilib, “mahalla yettiligi” tizimi yo‘lga qo‘yilgani bu boradagi ishlarga yangicha sur’at bag‘ishladi, desak, ayni haqiqat.

Joriy yilga “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nom berilishi bilan birga yil dasturida mahallalarni nafaqat iqtisodiy yuksaltirish, balki mehr-oqibat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish vazifalari belgilandi.

Kelgusi o‘n yillik taraqqiyot davrida mahalla institutining ahamiyati yanada ortishi kutilmoqda. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi, eng avvalo, hududlarda va bevosita mahallalarda sezilishi kerak. U xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli muloqotni mustahkamlash, aholi muammolarini joyida hal etish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatini to‘liq ishga solishning muhim omili sifatida yanada kengroq namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, internet, onlayn qimor, giyohvandlik va boshqa zararli ta’sirlar kuchayib borayotgan bugungi sharoitda mahallaning tarbiyaviy salohiyatini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy tajribaga ega nuroniylarni yoshlar tarbiyasi, oila farovonligi va tinchligi, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga yanada keng jalb qilish orqali fuqarolarda zararli illatlarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish lozim.

Shunday ekan bugungi mahalla nafaqat ma’muriy hudud, balki insonlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi, oilalarni mustahkamlaydigan va yosh avlodni hamda jamiyatni zararli illatlardan himoyalovchi ijtimoiy institutga aylanishi zarur. Zero, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyatimiz osoyishta hamda hamjihat bo‘ladi.

Aziza AMINOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida 7 mlrd. dollarlik 47 ta loyiha qurilishiga start berildi.








Qoraqalpog‘iston Respublikasi:

KELAJAK AVLODLAR OLDIDAGI MAS’ULIYAT

1 Bunday raqamlar iqtisodiy siyosatning eng asosiy mazmuni – yangi ish o‘rinlari, daromad manbalari hamda aholi turmushi uchun barqaror sharoitlar yaratish bilan o‘lchanishini ko‘rsatadi.

Tashrif chog‘ida 592 mln. dollarlik 11 ta loyiha ishga tushirildi va 7 mlrd. dollarlik yana 47 ta loyiha qurilishiga start berildi. Ushbu yangi quvvatlar hisobiga 8 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Tabiiy imkoniyatlar makoni

Hududning tabiiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishda energetika alohida o‘rin tutadi. Qoraqalpog‘istonning keng va shamolli hududlari bugun katta energetik resurs sifatida baholanmoqda. So‘nggi yillarda respublikada 860 megavatt yangi generatsiya quvvati ishga tushirildi. Beruniy va Qorao‘zakdagi shamol elektr stansiyalari hisobiga “yashil” energiyaning ulushi 23 foizga yetdi. Elektr quvvati ishlab chiqarish to‘rt karra oshib, 5 mlrd. 330 mln. kilovatt-soatni tashkil qildi. Bu hudud aholisi va korxonalarining yillik ehtiyojidan qariyb uch barobar ko‘pdir.

Ayniqsa, Qo‘ng‘irot tumanida Saudiya Arabistonining “ACWA” kompaniyasi bilan hamkorlikda barpo etiladigan 2,6 mlrd. dollarlik, 1,5 gigavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi hudud energetikasida yangi bosqichni boshlab beradi. Loyiha doirasida 1,5 ming kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmog‘i, uchta 500 kilovoltli podstansiya qurilishi nazarda tutilgan. 2030-yilga qadar Qoraqalpog‘istondagi shamol elektr stansiyalari quvvatini 3 300 megavattga yetkazish rejalashtirilgan.

Yig‘ilishda Qo‘ng‘irot – Qorao‘zak – Taxiatosh yo‘nalishini “yashil sanoat yo‘lagi” va “intellektual iqtisodiyot uchburchagi”ga aylantirish vazifasi ham qo‘yildi. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar markazlari uchun tashkil etilgan maxsus zonada 8 mlrd. dollarlik oltita loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Shu ma’noda, Qoraqalpog‘iston bugun nafaqat tabiiy resurslarga boy hudud, balki energiya, raqamli texnologiyalar va zamonaviy sanoat uyg‘unlashadigan yangi iqtisodiy makon sifatida shakllanmoqda.

Biroq Qoraqalpog‘istonning imkoniyatlari faqat energetika bilan chegaralanmaydi. Prezidentimiz tashrifi davomida bevosita tanishgan bir qator sanoat korxonalari faoliyatiga oid ma’lumotlar ham fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi. Xususan, “Nukus Insulation Group” korxonasida mahalliy bazaltdan zamonaviy issiqlik izolyatsiyasi materiallari ishlab chiqarilmoqda. Umumiy qiymati 50 mln. dollar bo‘lgan korxona yiliga 50 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega va bu yerda 150 ta ish o‘rni yaratilgan.

“Coals KS” korxonasi esa gazoblok va ohak ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan. 16,3 mln. dollarlik yirik loyiha yiliga 300 ming kub metr gazoblok va 165 ming tonna ohak ishlab chiqarish imkonini beradi. E’tiborlisi, buning uchun zarur xomashyoning 96 foizi mahalliy manbalardan olinadi.

19-sentabrdagi yig‘ilishda ham aynan “resursdan tayyor mahsulotgacha” tamoyili asosida yangi sanoat va investitsiya xaritasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Bu esa kelgusida Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotining tarkibi yanada murakkablashib, yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi oshishini anglatadi.

Ekologik muammolardan – “yashil” taraqqiyot sari

Qoraqalpog‘iston taraqqiyoti haqida Orol muammosidan ayri holda gapirish mumkin emas. Dengizning qurishi oqibatida paydo bo‘lgan Orolqum cho‘li mintaqadagi eng jiddiy ekologik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli keyingi yillarda bu yerda sho‘r va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklardan iborat himoya o‘rmonzorlari barpo etish keng miqyosda olib borildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2018 – 2025-yillarda Orol dengizining qurigan tubida 2 mln. gektar maydonda “yashil qoplama” tashkil etildi. Bunday o‘simliklar qum va tuz zarrachalarining shamol bilan ko‘tarilishi va tarqalishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Endilikda ekologik yondashuv iqtisodiy mexanizmlar bilan ham uyg‘unlashmoqda. 19-sentabrdagi yig‘ilishda yil yakunigacha Orolning 50 ming gektar maydonida “O‘rmon karbon krediti” dasturini boshlash vazifasi qo‘yildi. Bu yashil maydonlarni kengaytirish bilan bir vaqtda ekologik loyihalar uchun yangi moliyaviy manbalar yaratishga qaratilgan.

Cho‘l va sho‘r tuproq sharoitiga mos o‘simliklarni tanlash bo‘yicha ham yangi yondashuvlar sinovdan o‘tmoqda. Joriy yilda Nukus tumanida ham suvsizlikka chidamli galofit o‘simliklaridan iborat tajriba bog‘lari tashkil etildi.

Yuzaga kelgan ekologik vaziyat qishloq xo‘jaligi sohasiga resurstejamkor texnologiyalar qo‘llashni talab qilmoqda.

Yig‘ilishda hududdagi 417 ming gektar sug‘oriladigan maydonga 5,7 mlrd. kub metr suv sarflanayotgani, uning 38 foizi yo‘qotilayotgani qayd etildi. Shu bois To‘rtko‘ldagi “Yonbosh” va Bo‘zatovdagi “Erkindaryo” kanallarini betonlash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish va artezian quduqlarini kavlab, ishga tushirish uchun 135 mlrd. so‘m ajratish belgilandi.

Qishloq xo‘jaligida faqat an’anaviy ekinlar bilan cheklanib qolmasdan, Qoraqalpog‘iston iqlimi va tuprog‘iga mos yangi yo‘nalishlarni joriy etishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, uch yil davomida 30 ming gektarda sho‘rga chidamli olxo‘ri va kechki o‘rik plantatsiyalariga asos solish ko‘zda tutilgan. Shundan 10 ming gektarda ishlar joriy yilning o‘zida boshlanadi. Bu loyiha doirasida iqlimga mos ko‘chatlar va texnologiyalar olib kelinib, mahsulotni qayta ishlash quvvatlari ham barpo qilinadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, ushbu yo‘nalishda 20 ming kishining bandligini ta’minlash imkoniyati mavjud.

Nukus tumanida esa kelgusi bahordan 10 ming gektar maydonda qovun yetishtirish rejalashtirilgan. Eng samarali navlarni tanlash, mahsulotni qayta ishlash va eksport qilish yagona tizimga birlashtiriladi.

Bu – Qoraqalpog‘istonning og‘ir tabiiy sharoitini cheklov sifatida emas, ilm, texnologiya va to‘g‘ri agrotexnika yordamida yangi imkoniyatga aylantirishga qaratilgan yondashuv.

Bosh mezon – inson uchun yaratilgan sharoitlar

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar qanchalik muhim bo‘lmasin, islohotlarning natijasi, avvalo, odamlar hayotida ko‘rinishi kerak. Prezidentimiz tashrifi doirasida Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasida ana shunday o‘zgarishlar bilan tanishildi. 3 ming 600 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladigan mahallada “Smart mahalla” tizimi joriy etilgan. 4,5 mlrd. so‘m hisobiga 60 o‘rinli zamonaviy bolalar bog‘chasi qurilgan, sport maydonchalari tashkil qilingan.

Nukus shahrining G‘aresizlik, S. Kamalov va G‘. Sheraziyeva ko‘chalarida 2,5 kilometr hudud yangilanib, piyodalar yo‘laklari, yoritish va muhandislik infratuzilmasi yaxshilandi. Bu yerda yangi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari ish boshlashi natijasida qo‘shimcha ish o‘rinlari ham yaratildi.

Endi bu ishlar yanada katta ko‘lam kasb etadi. Nukus shahrining “Ashshiko‘l” hududida 50 ming aholiga mo‘ljallangan “Nukus siti” qurilishi boshlandi. 270 gektarlik maydonda energotejamkor binolar, biznes, savdo va servis markazlari, yashil xiyobonlar barpo qilinishi belgilangan. Bu loyiha poytaxt Nukusning shaharsozlik qiyofasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

Hudud rivoji uchun transport infratuzilmasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. “A – 380” magistral yo‘lining Qo‘ng‘irot hududidan o‘tgan 240 kilometri beton qoplamaga o‘tkazilgan. Endi To‘rtko‘l, Ellikqal’a va Beruniy hududlaridan o‘tuvchi yana 92 kilometrlik qismida 233 mln. dollarlik qurilish ishlari olib borilmoqda.

Yana bir muhim yangilik – 2027-yil mart oyidan Toshkent – Nukus tezyurar poyezdi harakatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Bu safar vaqtini 16 soatdan 7 soatga qisqartirishi ko‘zda tutilmoqda.

Nukus jamoat transporti ham bosqichma-bosqich yangilanmoqda. “Sapsan Trans No‘kis” loyihasi doirasida dastlabki avtobus va elektrobuslar keltirildi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda yana 112 ta elektrobus xarid qilish va depo qurish rejalashtirilmoqda.

Tashrif dasturida aholi salomatligi masalasi ham alohida o‘rin oldi. Qoraqalpog‘iston ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasining yangi majmuasi 154 mlrd. so‘m mablag‘ evaziga barpo etilgan. U yerda har yili 3 ming nafar shifokor va 6 ming 800 nafar o‘rta tibbiyot hamda farmatsevtika xodimining malakasini oshirish imkoni yaratilgan.

Nukus shahrida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda barpo etilgan Shayx Xalifa nomidagi 100 o‘rinli zamonaviy shifoxona ham ishga tushirildi. Loyiha qiymati 27 mln. dollar bo‘lgan ushbu muassasa zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta’minlangan.

Yig‘ilishda Nukus tibbiyot ilmiy akademiyasi, Bolalar klinikasi, Onkologiya markazi va yangi ko‘p tarmoqli shifoxonani birlashtirib, Universitet tibbiy klasterini tashkil etish belgilandi. Bugun Nukusda jigar va buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilayotgani, Orolbo‘yi bolalar shifoxonasida 150 turdagi yuqori texnologik tibbiy xizmat ko‘rsatilayotgani ham aytildi.

Qoraqalpog‘iston taraqqiyotining yana bir muhim ustuni – yoshlar. Yig‘ilishda bir yilda ming nafar, keyingi ikki yilda yana 5 ming nafar yoshni axborot texnologiyalari va logistika sohalarida yuqori daromadli ish bilan ta’minlash vazifasi qo‘yildi.

Nukus shahridagi 1-son texnikumda “Pearson BTEC” xalqaro dasturi joriy etilgan. Bu tajribani Amudaryo, Beruniy, Chimboy va Qo‘ng‘irotdagi texnikumlarga ham yoyish belgilandi. Shu bilan birga, asbob-uskuna xaridi uchun yoshlarga beriladigan ssuda miqdori 20 mln. so‘mdan 50 mln. so‘mga oshirilishi ko‘zda tutildi.

Nukusda rekonstruksiya qilingan “Turon” stadioni ham yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlarning yana bir misolidir. Stadion sig‘imi 9,3 mingdan 12 ming o‘ringa yetkazildi, futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari va boshqa sport turlari vakillari uchun zamonaviy sharoit yaratildi.

Bu o‘zgarishlarning ahamiyati, ayniqsa, uzoq va ekologik jihatdan murakkab hudud aholisi uchun beqiyos bo‘lib, amalga oshirilayotgan loyihalarning barchasi, avvalo, munosib turmush sharoitlari yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Yangi bosqichning bosh maqsadi

Qoraqalpog‘istondagi o‘zgarishlarga butun manzara sifatida qarasak, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘ramiz.

Shamol elektr stansiyasi – faqat energiya manbai emas, yangi sanoat uchun asos.

Yangi avtomobil yo‘li – faqat asfalt yoki beton qoplamasi emas, mahsulotni bozorga tez yetkazish imkoniyati.

Suv tejaydigan kanal – faqat irrigatsiya inshooti emas, dehqon daromadi va oziq-ovqat xavfsizligi.

Bog‘cha, shifoxona va stadion esa ijtimoiy obyektning o‘zi emas, inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoyadir.

Orolning qurigan tubida paydo bo‘layotgan “yashil qoplamalar” ham oddiy ko‘kalamzorlashtirishdan kengroq mazmun kasb etmoqda. Ular ekologik barqarorlik, aholi salomatligi, iqlim o‘zgarishiga moslashuv va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat bilan bog‘liq.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifi ana shu yo‘nalishlarning barchasini yagona maqsad – hudud iqtisodiy salohiyatini ishga solish va aholi uchun munosib hayot sharoitini kengaytirish atrofida birlashtirdi.

Qoraqalpog‘istonning bugungi manzarasi shu jihati bilan ahamiyatli: bir vaqtlar ekologik muammoning eng og‘riqli nuqtasi sifatida tilga olingan Orolbo‘yida bugun muammolarni yechish bilan birga, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ishga solishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Qoraqalpog‘iston uchun yangi bosqichning bosh maqsadi – har bir shahar, tuman, ovul va mahallada odamlarning kundalik hayotida seziladigan, daromadi, salomatligi, ta’limi va ertangi kunga ishonchiga ta’sir qiladigan barqaror taraqqiyot muhitini shakllantirish.

Faxri DIYOROV
(“Xalq so‘zi”).

OROLBO‘YI IQTISODIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

1 Tashrif chog‘ida umumiy qiymati 592 mln. dollar bo‘lgan 11 ta loyiha ishga tushirilib, xorijiy hamkorlar ishtirokidagi 7 mlrd. dollarlik 47 ta yangi loyiha qurilishiga start berildi. Ushbu tashabbuslar minglab oilalar barqaror daromadi, yoshlarning o‘z hududida munosib mehnat qilishi va mahalliy iqtisodiyotning yangi imkoniyatlari ochilishi kabi ezgu maqsadlarga keng yo‘l ochadi, albatta. Tashrifning yana bir muhim jihati – raqamli iqtisodiyotga katta e’tibor qaratilgani. Taxiatosh tumanida 150 mln. dollarlik modulli intellektual hisoblash markazining birinchi bosqichi ishga tushirildi. Qo‘ng‘irot, Qorao‘zak va Taxiatosh yo‘nalishini “yashil sanoat yo‘lagi” hamda “intellektual iqtisodiyot uchburchagi”ga aylantirish vazifasi belgilandi.

Sun’iy intellekt va ma’lumotlar markazlari uchun tashkil etilgan maxsus zonada 8 mlrd. dollarlik oltita loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan birga yoshlar uchun yuqori malakali va yaxshi haq to‘lanadigan ish o‘rinlarini yaratadi. Prezidentimizning Nukus shahridagi “Coals KS” korxonasi faoliyati bilan tanishgani ham mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tiborning ifodasi bo‘ldi. Korxonada foydalanilayotgan xomashyoning 96 foizi mahalliy manbalardan olinadi. Gazoblok va ohak mahsulotlarini Qozog‘iston hamda Turkmanistonga eksport qilish rejalashtirilgan. Bu “resursdan tayyor mahsulotgacha” tamoyilining amaldagi yaqqol namunasidir. Qoraqalpog‘istonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar hududni xomashyo yetkazib beruvchi emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan, “yashil” energiya va intellektual texnologiyalarga tayangan zamonaviy iqtisodiy makonga aylantirishga xizmat qiladi.

Muhimi, har bir loyiha aholi bandligi, daromadi va farovonligi bilan bevosita bog‘langan. Shu ma’noda, Prezidentimiz tashrifi Qoraqalpog‘istonning uzoq muddatli taraqqiyot yo‘lini belgilab bergan katta voqea bo‘ldi.

Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi a’zosi.

IMKONIYATLARDAN NATIJALAR SARI

1 Tashrif davomida hududda amalga oshirilayotgan ishlar sarhisob qilindi, yangi investitsiya loyihalariga start berildi, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, aholi bandligini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.



Shu maqsadda Qoraqalpog‘istonda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, foyda, yer va mol-mulk soliqlari ikki barobar kamaytirildi. Sanoat korxonalari uchun elektr energiyasi tarifi 15 foizga pasaytirildi, ijtimoiy soliq esa 1 foiz etib belgilandi. Oilaviy tadbirkorlik kreditlari bo‘yicha foiz stavkasi 17,5 dan 12 foizga tushiriladi. Shuningdek, drayver loyihalarga 100 mln. dollar yo‘naltirilib, kamida 50 ming kishini daromadli qilish vazifasi qo‘yildi.

Bularning zamirida iqtisodiy faollikni oshirish orqali odamlar uchun munosib mehnat hamda barqaror daromad manbalarini yaratishdek ulkan maqsad mujassam. Zero, har bir investitsiya loyihasi, yangi korxona va tadbirkorlik tashabbusining eng muhim natijasi, avvalo, yangi ish o‘rni hamda inson uchun daromad manbai bo‘lishi kerak.

Ayni paytda Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy salohiyati faqat sanoat bilan cheklanib qolayotgani yo‘q, albatta. Qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, turizm, logistika, “yashil” energetika va raqamli texnologiyalar kabi sohalarda ham hududning imkoniyatlari katta. Bundan samarali foydalanish esa yangi ish o‘rinlari va qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish uchun keng yo‘l ochadi. Masalan, bog‘dorchilikni rivojlantirish doirasida uch yilda 30 ming gektar maydonda sho‘rga chidamli olxo‘ri va kechki o‘rik plantatsiyalarini tashkil etish, 20 mingta ish o‘rni yaratish hamda meva eksportini 500 mln. dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Bu rejalarning amalda uddalanishi nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshiradi, balki qishloq aholisi uchun yangi mehnat va daromad imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Katta marralar hali oldinda. Bugungi taraqqiyot jarayonida iqtisodiyotning zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt va ma’lumotlar markazlari uchun maxsus zonada 8 mlrd. dollarlik loyihalarni amalga oshirish, shu orqali yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan.

Albatta, Qoraqalpog‘istonda iqtisodiy o‘sish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilyapti, investitsiyalar jalb etilmoqda, ishlab chiqarish quvvatlari kengaymoqda, yo‘llar va muhandislik infratuzilmasi yangilanayotir. Ta’lim va tibbiyot sohalarida ham yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Bularning barchasi hududning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugun biz, xalq vakillari tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda oldimizda turgan asosiy vazifa, ya’ni yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlarni amaliy natijaga aylantirishimiz shart.

Sapargul UTEMURATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

Jizzax viloyatining Baxmal, Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanlarida yomg‘ir suvini yig‘ish, saqlash va tomorqalarni suv tejovchi texnologiyalar asosida sug‘orishga qaratilgan ijtimoiy loyiha amalga oshiriladi.



Shaxmat olimpiadasi:
TERMA JAMOAMIZ YAKKA PESHQADAM

Samarqand shahrida uyushtirilayotgan Butunjahon shaxmat Olimpiadasi o‘zining qizg‘in pallasiga kirib bormoqda. Kecha musobaqaning 6-tur uchrashuvlari tashkil qilindi. Yana beshta turdan so‘ng yirik turnirning g‘olib va sovrindorlari aniqlanadi.



O‘zbekiston erkaklar va ayollar terma jamoalari uchtadan jamoa bo‘lib Olimpiadani sermazmun hamda ishonchli o‘tkazib, peshqadamlar safida borishmoqda.

N. Abdusattorov, N. Yakubboyev, Sh. Vohidov, M. Madaminov, J. Sindorovdan iborat asosiy jamoamiz 2-turda Peruni 3,5:0,5, 3-turda Avstriyani 3:1, 4-turda kuchli raqib Turkiyani 2,5:1,5, 5-turda Vengriyani yirik 4:0 hisoblarida mag‘lub etishga muvaffaq bo‘ldi. 6-turda kuchli shaxmat maktabiga ega, Olimpiadaning amaldagi g‘olibi Hindiston terma jamoasi ustidan murosasiz qarama-qarshilikda 2,5:1,5 hisobda zafar quchildi. Javohir, Shamsiddin va Nodirbek o‘z raqiblari bilan durang o‘ynagan bo‘lsa, Nodirbek Yakubboyev muhim bellashuvda g‘alaba qozondi. Hozircha 6 ta turdan keyin vakillarimiz 12 ochko jamg‘arib, turnir jadvalida yakka peshqadam bo‘lib turishibdi.

G. Tohirjonova, A, Hamdamova, U. Omonova, N. Imomqo‘ziyeva, G. Karimova kabi ayol shaxmatchilarni birlashtirgan bosh jamoamiz Ekvador (4:0), Indoneziya (3:1), Argentina (3:1) singari terma jamoalarni yutib, 5-turda musobaqa favoritlaridan biri AQSHlik qizlar bilan 2:2 hisobida durang qayd etdi. Afsuski, kechagi bahsda Gruziya terma jamoasiga 0,5:3,5 natija bilan mag‘lub bo‘ldi. Mazkur bahslardan so‘ng O‘zbekiston asosiy ayollar terma jamoasi 9 ochko bilan 18-pog‘onadan joy olgan.

“Aichi-Nagoya – 2026" kundaligi:
DASTLABKI MEDALLAR QO‘LGA KIRITILDI

Kecha qit’amizning eng nufuzli musobaqasi – XX Osiyo o‘yinlarining ikkinchi kun bahslari bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston sport delegatsiyasi dastlabki bellashuvlardan so‘ng uchta – bittadan oltin, kumush va bronza medallarini qo‘lga kiritib, medallar jamg‘arish reytingida 10-o‘rinda ketmoqda.



Karate bo‘yicha bahs finalida hamyurtimiz A. Rashidov 67 kilogrammgacha vazn toifasida yaponiyalik Yugo Kozakini mag‘lubiyatga uchratib, delegatsiyamiz hisobiga ilk oltinni taqdim etdi. Yana bir karatechimiz H. Halimov 55 kilogrammgacha vaznda kumush medalga ega chiqdi. U finalda qozog‘istonlik raqibga imkoniyatni boy berdi.

Aralash jang san’ati (MMA)dagi jangchimiz N. Shavkatov 71 kilogrammgacha vazn toifasida yarimfinal uchrashuvida qozog‘istonlik raqibiga yutqazdi va Osiyo o‘yinlarini bronza medal bilan tugatadigan bo‘ldi.

Futbol bo‘yicha ayollar terma jamoamiz hal qiluvchi 3-turda Gonkong ustidan g‘alabaga erishdi – 2:1. Jamoamiz gollariga D. Habibullayeva hamda M. Shoyimova mualliflik qildi. Shu tariqa vakillarimiz 5 ochko bilan guruhda ikkinchi o‘rinni egallagan holda chorak final masalasini hal etdi.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

Gastronomik festival

TAOMLARDA YASHAYOTGAN TARIX

Xivaga kelgan kishi bu zaminning tarixini avval ko‘zlari bilan ko‘radi: Ichan qal’aning salobatli devorlari, muhtasham saroylar, osmonga bo‘y cho‘zgan minoralar, tor va sirli ko‘chalar – barchasi asrlar qa’ridan so‘zlaydi.

Qadimiy Xiva muhitini yana bir yo‘l bilan – uning taomlari orqali ham anglash mumkin.

Ana shu o‘ziga xos merosni keng targ‘ib etish maqsadida “Arda Xiva” turizm majmuasida “Xorazm xonlari milliy taomlari” II xalqaro gastronomik festivali o‘tkazildi. Ikki kun davom etgan ushbu tadbir xorijlik va mahalliy sayyohlarga Xorazm milliy taomlari, jumladan, o‘tmishda xonlarning shohona dasturxoni uchun tayyorlangan noyob yemaklar haqida ma’lumot olish, ularning tayyorlanish jarayonlarini kuzatish va tatib ko‘rish imkonini berdi.

– Xorazm milliy oshxonasi asrlar davomida shakllangan boy tajriba an’anasiga ega, – deydi festival ishtirokchisi Guli Muxtorova. – Bu zaminda taomning mazasi bilan birga, uni pishirish tartibi, mahsulotlarni tanlash, dasturxonga tortish madaniyati ham alohida ahamiyat kasb etgan. Festivalda biz ham o‘zimizning bor mahoratimizni namoyish qilib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdik. Festival tashkilotchilariga o‘z minnatdorligimizni bildiramiz.

Hakamlar hay’ati tomonidan Urganch shahridagi “Saltanat”, “Gavhar” restoranlari va Surxondaryo viloyati oshpazlar jamoasi birinchi o‘ringa loyiq, deb topildi va munosib rag‘batlantirildi.

Odilbek ODAMBOYEV
(“Xalq so‘zi”).

YAKKABOG‘LIKLARGA AJOYIB SOVG‘A

Yakkabog‘ tumanining Ayg‘irko‘l mahallasida nafaqat tuman, balki viloyatdagi eng zamonaviy madaniy-ko‘ngilochar maskanlardan biri bo‘lishi kutilayotgan yangi istirohat bog‘i bunyod etilmoqda.

Bunyodkorlik



Loyihaga ko‘ra, qariyb 13 gektar maydonni o‘z ichiga oladigan majmuada maxsus dam olish hududlari, zamonaviy o‘yin maydonchalari, sun’iy havza, ochiq sahna, favvoralar hamda piyodalar yo‘lagi va veloyo‘laklar barpo qilinadi. Bog‘ hududida zamonaviy amfiteatr ham qad rostlaydi. Umumiy qiymati 6 mlrd. so‘mni tashkil etadigan amfiteatr 650 kishilik o‘ringa ega bo‘ladi. U turli bayramlar, konsert tomoshalari va boshqa madaniy tadbirlarni o‘tkazish uchun qulaylik yaratadi.

Bundan tashqari, istirohat bog‘iga qiymati 18 mlrd. so‘mlik zamonaviy attraksionlarni o‘rnatish ishlari ham boshlab yuborilgan.

Ta’kidlash joizki, bungacha tuman markazidagi istirohat bog‘i ko‘p yillar davomida ma’nan eskirib, qarovsiz holatga kelib qolgani aholining haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgan edi.

Jahongir BOYMURODOV
(“Xalq so‘zi”).


Moliya muassasalarida

REKLAMA

«TRASTBANK» TADBIRKORGA ISHONCHLI KO‘MAKCHI

Mamlakatimiz moliyaviy xizmatlar bozorining faol ishtirokchisi – “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi. Unda moliya muassasasida taklif etilayotgan bank xizmatlari va mahsulotlari, aholi hamda tadbirkorlik subyektlari uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, “onlayn banking” haqida batafsil ma’lumot berildi.

Ta’kidlanganidek, “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki o‘zining 32-yillik faoliyati mobaynida mijozlar uchun yangi, qulay va tezkor bank xizmatlarini ko‘rsatish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligini ta’minlash, daromadini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.



– Davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda yurtimizdagi barcha banklar biznesni rivojlantirishga eng yaqin ko‘makchi bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidladi. Bu bankimiz jamoasiga ham katta kuch bag‘ishlashi barobarida zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklamoqda, – deydi “Trastbank” XAB boshqaruvi raisi o‘rinbosari Ziyovuddin Kurganov. – Buni chuqur his qilib, yurtimiz hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirok etyapmiz. Agar raqamlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan joriy yilning sakkiz oyida yuridik shaxslar uchun jami 5 trln. 64 mlrd. so‘mlik kreditlar ajratildi. Natijada 1 200 dan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2024-yil 12-avgustdagi “Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan bankning bu boradagi faoliyati ko‘lami yanada kengaydi. Masalan, joriy yilning sakkiz oyi mobaynida jami 123 mlrd. 601 mln. so‘mlik faktoring xizmatlari ko‘rsatildi.

Shu o‘rinda faktoring xizmatiga izoh bersak. Deylik, biror korxona o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni bozorga chiqardiyu sotdi. Ammo xaridor mahsulot uchun pulni hozir emas, ikki yo uch oydan so‘ng to‘layman dedi. Ayni shu chog‘da sotuvchiga bank ko‘makka keladi, tadbirkor uchun garov talab qilinmaydigan va qisqa muddatli mablag‘ – faktoring xizmati ko‘rsatiladi. Bu “Trastbank”da milliy valyutada 90 kungacha, xorijiy valyutada esa 180 kungacha muddatga taqdim etiladi. Diskont summasi esa milliy valyutada 2 foizdan 8 foizgacha, xorijiy valyutada 1,5 foizdan 10 foizgacha qilib belgilangan.

Bugungi kunda bank aktivlari 19 trln. 584 mlrd. so‘mni, kapitali esa 4 trln. 92 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Kredit portfeli – 9 trln. 196 mlrd. so‘m. Shuning o‘ziyoq bank moliyaviy raqobat muhitida o‘z o‘rnini mustahkamlab borayotganini ko‘rsatadi. Ayni chog‘da bank rahbariyati tizimda yosh va iqtidorli mutaxassislarning safi ko‘payishiga harakat qilmoqda. “Trastbank”ning “Toshkent” bank xizmatlari ofisida bunga yaqqol guvoh bo‘ldik.

– Yoshlar harakatchan, yangidan-yangi tashabbuslar ham, asosan, ularga tegishli. Muhimi, mijozning talabiga xushmuomalalik bilan javob berishadi. Bunday takalluf bankimiz mijozlarini ko‘paytirishga xizmat qilayotir, – deydi “Toshkent” BXO xodimlar bilan ishlash shu’basi mudiri Dono Sarimsoqova. – Masalan, bugun “Toshkent” BXO boshqaruvchisi o‘rinbosari Melis Tangirovning o‘nlab shogirdlari turli bo‘limlarda ishlayapti. Oddiy mutaxassis sifatida ishga kirgan yoshlar orasida bir yil o‘tmasdan bo‘lim boshlig‘i, bosh mutaxassis darajasiga ko‘tarilgan, bankning markaziy ofisiga chaqirilib, mas’uliyatli lavozimlarga loyiq ko‘rilgan yigit-qizlarimiz talay. Ochig‘i, ular bilan birpas gaplashing, sizda ham beixtiyor kichik korxona tashkil etish va aynan “Trastbank”da hisob raqami ochish istagi paydo bo‘ladi. Bu jamoamiz ahil va inoqligidan ham dalolatdir.



Press-tur davomida jurnalistlar Toshkent tumanida joylashgan yuqori sifatli, eskportbop tibbiyot buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan “Fazo Luxe” korxonasida bo‘ldilar. “Trastbank” shu yil mazkur korxonaga 10 mlrd. so‘m miqdorida faktoring xizmati ko‘rsatibdi. Natijada ushbu korxonada ishlab chiqarish hajmi yanada oshgan va eksport salohiyati ko‘tarilgan.

– O‘z vaqtida berilgan moliyaviy ko‘makning qadri benihoya baland, – deydi korxona rahbari Ozod Shaxobiddinov. – Eng zarur mahal bank bizga yordam qo‘lini cho‘zdi va faktoring xizmati ishga tushdi. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Shu bois “Trastbank”ni jamoamiz banki, deb ataymiz. Ayni chog‘da esa korxonamizda 250 nafardan ortiq o‘g‘il-qizlar doimiy ish bilan band. Biz uchun sifat va shartnoma talabi – eng muhim masala. Chunki ishlab chiqargan mahsulotlarimizni dunyoning o‘nlab davlatlariga eksport qilyapmiz. Ichki bozorda ham doimiy xaridorlarimiz bor.

Paxta tolasi kalavaga aylanishi, so‘ng tibbiy mahsulotlar tayyorlanishi jarayonlarini kuzatdik. Uskunalar zamonaviy, xorijdan keltirilgan. Shodiya Rajabova, Odilbek Xolmanov singari kechagina maktabni bitirib bu yerga ishga kelgan yoshlar bilan suhbatlashdik. Ular yaratilgan shart-sharoitlardan xursand. Yana yoshlarning har ikkisi ham o‘zlari sevgan kasb bo‘yicha oliy ta’limda o‘qiyapti. Orzulari bir olam bu yoshlar ham ishli, ham doimiy daromadli bo‘lganidan mamnun.

“Trastbank” ko‘magi bilan oyoqqa turgan, moliyaviy ahvolini yanada yaxshilab o‘ziga xos brendlar yaratayotgan bunday jamoalar yurtimizda ko‘plab topiladi. Ular bank xizmatidan mamnun, bizneslarining istiqbolini bankning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashida ko‘ryapti. Demak, bank jamoasi erishadigan natijalar va yutuqlar tez orada yanada salmoqli bo‘ladi. Muhimi, ularning jonkuyarlik bilan olib borayotgan jo‘shqin faoliyati hududlarda aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Zamon bilan bunday hamnafaslik hech shubha yo‘qki, kelgusida “Trastbank” qudratini yanada oshiradi.

Press-tur davomida jurnalistlar ishlab chiqarish va servis sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bilan muloqot qildi. Soha rivojida banklarning moliyaviy ko‘magi va ishtiroki xususida ma’lumotga ega bo‘lishdi.

Abdunabi ALIQULOV
(“Xalq so‘zi”).

TRASTBANK

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan joriy yilning sakkiz oyida yuridik shaxslar uchun jami **5 trln. 64 mlrd.** so‘mlik kreditlar ajratildi. Buning natijasida **1 200 dan ziyod** yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi.

12 – 14-oktabr kunlari Toshkentdagi “Uz Expo Centre” majmuasida “Apparel Textile Sourcing Uzbekistan – 2026” xalqaro ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-942. 19 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 20.35 Topshirildi – 23.41 1 2 3 4 5 6